

THE SENSE OF HOMELAND, LOVE FOR LITERATURE, AND
CIVIC RESPONSIBILITY IN THE VIEWS OF OZOD
SHARAFIDDINOV

Mavlanova Dilrabo Farxotjon qizi

2nd-year student of the Political Science program University
of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan,

Tel.: (93) 962-83-06

E-mail: mavlonovadilrabo2705@gmail.com

Annotation. This article analyzes the issues of patriotism, love for literature, and the civic responsibility of intellectuals in the works of the renowned literary scholar, critic, and public figure Ozod Sharafiddinov from scientific-theoretical and socio-philosophical perspectives. Based on the author's work "Even If I Die, I Will Not Leave Your Embrace" and his views on the role of literature in social life, the spiritual essence of the concept of Homeland, the role of literature in shaping national consciousness, and the social responsibility of intellectuals are revealed. Furthermore, the relevance of Sharafiddinov's ideas in the spiritual and political education of today's youth is highlighted.

Keywords: Homeland, patriotism, literature, intellectuals, civic responsibility, social consciousness, Ozod Sharafiddinov, national thinking.

OZOD SHARAFIDDINOV QARASHLARIDA VATAN TUYG'USI,
ADABIYOTGA MUHABBAT VA FUQAROLIK MAS'ULIYATI

Mavlonova Dilrabo Farxotjon qizi

O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar
universiteti "Siyosatshunoslik" yo'nalishi 2-bosqich talabasi,

Tel.: (93) 962-83-06

Elektron pochta: mavlonovadilrabo2705@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada taniqli adabiyotshunos, munaqqid va jamoat arbobi Ozod Sharafiddinov ijodida vatanparvarlik, adabiyotga muhabbat hamda ziyolining jamiyat oldidagi fuqarolik mas'uliyati masalalari ilmiy-nazariy va ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Muallifning "O'lsam ayrilmasman quchoqlaringdan" asari hamda adabiyotning jamiyat hayotidagi roli haqidagi qarashlari asosida Vatan

tushunchasining ma'naviy mohiyati, adabiyotning milliy ongini shakllantirishdagi o'rni va ziyolining ijtimoiy mas'uliyati yoritib beriladi. Shuningdek, Sharafiddinov qarashlarining bugungi yoshlar ma'naviy-siyosiy tarbiyasidagi dolzarbligi ochib beriladi.

Kalit so'zlar: *Vatan, vatanparvarlik, adabiyot, ziyolilik, fuqarolik mas'uliyati, ijtimoiy ong, Ozod Sharafiddinov, milliy tafakkur*

.ЧУВСТВО РОДИНЫ, ЛЮБОВЬ К ЛИТЕРАТУРЕ И ГРАЖДАНСКАЯ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ В ВОЗЗРЕНИЯХ ОЗОДА ШАРАФИДДИНОВА

Мавланова Дилрабо Фархотжон кизи
студентка 2 курса направления «Политология»
Университета журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана,
Тел.: (93) 962-83-06
Электронная почта: mavlonovadilrabo2705@gmail.com

Аннотация. *В данной статье с научно-теоретической и социально-философской точек зрения анализируются вопросы патриотизма, любви к литературе и гражданской ответственности интеллигенции в творчестве известного литературоведа, критика и общественного деятеля Озода Шарафиддинова. На основе произведения автора «Если умру — не расстанусь с твоими объятиями», а также его взглядов на роль литературы в жизни общества раскрываются духовная сущность понятия Родины, значение литературы в формировании национального сознания и социальная ответственность интеллигенции. Кроме того, показана актуальность идей Шарафиддинова в духовно-политическом воспитании современной молодежи.*

Ключевые слова: *Родина, патриотизм, литература, интеллигенция, гражданская ответственность, общественное сознание, Озод Шарафиддинов, национальное мышление*

Kirish

XX asr o'zbek ijtimoiy-ma'naviy tafakkurida Ozod Sharafiddinov shaxsiyati alohida o'rin egallaydi. U, nafaqat, adabiyotshunos va adabiy tanqidchi, balki balki millat taqdiri, jamiyat taraqqiyoti va Vatan ravnaqi uchun befarq bo'lmagan ziyoli, o'z

davrining muhim ijtimoiy-siyosiy muammolariga faol munosabat bildirgan jamoat arbobi sifatida ham eʼtirof etiladi. Uning asarlarida millat, Vatan, adolat, haqiqat, vijdon, masʼuliyat kabi tushunchalar yetakchi oʻrinni egallaydi.

Sharafiddinov uchun Vatan — bu shunchaki tugʻilib-oʻsgan hudud emas, balki insonning butun hayoti, maʼnaviy olami, tarixiy xotirasi va kelajak orzulari bilan chambarchas bogʻlangan muqaddas tushunchadir. Sharafiddinov ijodida vatanparvarlik oddiy hissiy tuygʻu sifatida emas, balki ongli ijtimoiy holat, fuqarolik burchi va doimiy masʼuliyat sifatida talqin qilinadi. U vatan muhabbatini shiorbozlikdan, balandparvoz soʻzlardan ajratib, fidokorona mehnat, qahramonlik va halol mehnat bilan bogʻlaydi. Shu jihatdan, uning qarashlari bugungi globallashuv sharoitida yoshlarning siyosiy va fuqarolik ongini shakllantirishda muhim nazariy manba boʻlib xizmat qiladi deyish mumkin.

Muallif asarlarida Vatan tushunchasining falsafiy talqini

“Oʻlsam ayrilmasman quchoqlaringdan” maqolasida Sharafiddinov Vatan tushunchasini faqat geografik hudud yoki tugʻilib-oʻsgan makon sifatida emas, balki tarix, jamiyat, madaniyat, insoniy munosabatlar va maʼnaviy qadriyatlar majmui sifatida aks ettiradi. Inson tugʻilgan uy, ota-ona mehri, bolalik xotiralari, maktab, mahalla, jamiyat, xalqning urf-odatlar — bularning barchasi yagona Vatan obrazini yaratadi. Shu bois Vatan inson hayotida faqat makon emas, balki maʼno, maqsad va ruhiy tayanch vazifasini bajaradi. Uning fikricha, Vatan tuygʻusi inson hayoti bilan birga shakllanib, tajriba va tafakkur orqali tobora chuqurlashib boradigan muqaddas tushunchadir. Shu oʻrinda, muallif Vatanga boʻlgan muhabbatni biologik yoki tasodifiy hissiyot emas, balki ongli tanlov, maʼnaviy yetuklik natijasi sifatida izohlaydi. Inson ulgʻaygan sari, jamiyatda oʻz oʻrnini anglagan sari Vatan degan tushuncha uning qalbida chuqur ildiz otadi. Bu esa shaxsda masʼuliyat, burch va fidokorlik tuygʻularini kamol toptiradi. Muallif Vatan muhabbatini “har kuni, har soatda, har daqiqada” namoyon boʻladigan ichki ehtiyoj sifatida talqin etadi. Bu esa vatanparvarlikni ijtimoiy ongning eng muhim koʻrinishlaridan biriga aylantiradi.

Sharafiddinov vatanparvarlikning soxta, balandparvoz, tashqi koʻrinishdagi shakllarini keskin tanqid qiladi. U faqat tantanali nutqlar, balandparvoz gaplar va namoyishkorona xatti-harakatlar bilan ifodalangan vatanparvarlikni samarasiz va hatto zararli deb baholaydi. Chunki bunday yondashuv inson ongida riyo, yuzakilik va

mas'uliyatsizlikni kuchaytiradi. Uning fikricha, haqiqiy vatanparvarlik — bu kundalik mehnat, jamiyat manfaatiga xizmat qilish, halollik, adolat va vijdon bilan yashashdir. Inson o'z kasbida halol bo'lsa, jamiyat muammolariga befarq bo'lmasa, boshqalarga yordam qo'lini cho'zsa — aynan mana shu oddiy, ammo doimiy harakatlar Vatanga eng katta xizmatdir. Bu yondashuv vatanparvarlikni haqiqiy hayot bilan bog'lab, uni shior darajasidan amaliy darajaga ko'taradi.

Sharafiddinov qarashlarida ziyolilik tushunchasi alohida ahamiyatga ega. U ziyolini shunchaki bilimli inson emas, balki jamiyat muammolariga befarq bo'lmagan, haqiqat uchun kurasha oladigan, mas'uliyatni chuqur his qiladigan shaxs sifatida talqin qiladi. Ziyolining asosiy vazifasi — jamiyatni uyg'otish, adolat va haqiqat yo'lida fikr bildirishdan qo'rqqanlikdir deya ta'kidlagan muallif. U jamiyatda keng tarqalgan soxta vatanparvarlik, balandparvoz nutqlar, rasmiyatchilik va ko'zbo'yamachilikni keskin tanqid qiladi. Uning fikricha, haqiqiy fuqarolik mas'uliyati jim turmaslik, ijtimoiy adolatsizlikka qarshi ongli munosabat bildirish, halol mehnat va fidokorlik orqali namoyon bo'ladi. Bu esa ziyolilikni faqat ilmiy faoliyat bilan emas, balki ijtimoiy mas'uliyat bilan bog'lash zaruratini ham ko'rsatadi. Bu borada Sharafiddinov jadidlar faoliyatini misol qilib keltirib, ularning shovqinsiz, lekin fidokorona xizmatini haqiqiy vatanparvarlik namunasi ekanini izohlagan. Jadidlar uchun millat ravnaqi ularning shaxsiy manfaatlaridan ustun va aziz bo'lgan. Bu esa Sharafiddinov uchun vatanparvarlikning eng yuksak namunasi hisoblanadi. Bu yondashuv bugungi kunda ham dolzarb bo'lib, yosh avlodni Vatanni sevishga, uning har qarichi uchun fido bo'lishga doim shay turishga chorlaydi.

Adabiyot va milliy ong uyg'onishi

Ozod Sharafiddinov ijodida adabiyotga muhabbat alohida o'rin tutadi. Ozod Sharafiddinov adabiyotga faqatgina estetik zavq manbai emas, balki kuchli ijtimoiy-siyosiy omil sifatida qaraydi. Uning fikricha, adabiyot jamiyat tafakkurini shakllantiradi, milliy ongni uyg'otadi, fuqarolik mas'uliyatini kuchaytiradi. Adabiyot — bu millat qalbining ko'zgusi, uning orzu-intilishlari, dardi va umidlarini ifoda etuvchi qudratli vositadir, deya ta'kidlaydi u. Muallif adabiy tanqidni ham faqat badiiy tahlil bilan cheklamaydi. U tanqidni jamiyat muammolarini ochib beruvchi, millat tafakkurini uyg'otuvchi, ijtimoiy adolatni qaror toptiruvchi kuch deb hisoblaydi. Shu bois uning adabiy qarashlari bevosita siyosiy va ijtimoiy masalalar bilan

bogʻlanadi. Muallif adabiyot orqali insonning ichki dunyosini, axloqiy qarashlarini, vatanparvarlik tuygʻusini shakllantirish mumkinligini taʼkidlaydi. Aynan shu jihat Sharafiddinov ijodini faqat adabiyotshunoslik doirasidan chiqarib, uni keng ijtimoiy-siyosiy koʻlamga olib chiqadi. Bu yondashuv adabiyot va siyosat oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlikni ochib beradi.

Bugungi globallashuv, axborot xurujlari kuchaygan davrda yoshlarning siyosiy ijtimoiylashuvi murakkab jarayonga aylangan. Bunday sharoitda Sharafiddinov qarashlari ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Uning vatanparvarlik, ziyolilik va masʼuliyat haqidagi gʻoyalari yosh avlodda mustaqil fikrlash, tanqidiy tafakkur va faol fuqarolik maqomini shakllantirishga xizmat qiladi. Bugungi yoshlar faqat bilim olish bilan cheklanib qolmasdan, jamiyat muammolariga ongli munosabat bildirish, Vatan ravnaqi uchun oʻz hissasini qoʻshishi lozim. Bu borada Sharafiddinov ilgari surgan gʻoyalar samarali nazariy asos boʻlib xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Ozod Sharafiddinov ijodida vatanparvarlik, ziyolilik va fuqarolik masʼuliyati oʻzaro uzviy bogʻlangan yaxlit tushunchani tashkil etadi. U Vatan muhabbatini balandparvoz shiorlar emas, balki ongli mehnat, halollik, adolat, ijtimoiy faollik va maʼnaviy poklik bilan bogʻlaydi. Ziyolilikni esa jamiyat oldidagi masʼuliyat, haqiqatni himoya qilish va milliy ongning uygʻotish vazifasi sifatida talqin etadi. Bu qarashlar bugungi yoshlar tarbiyasida, ularning siyosiy va maʼnaviy kamolotida muhim ahamiyatga ega boʻlib, ularni faol, masʼuliyatli va ongli fuqarolar sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sharafiddinov O. Isteʼdod va eʼtiqod. – Toshkent: Maʼnaviyat, 1993.
2. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – Toshkent: Maʼnaviyat, 2004.
3. Sharafiddinov O. Domlalar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009.
4. Sharafiddinov O. Maʼnaviy kamolot yoʻllarida. – Toshkent: Maʼnaviyat, 2001.
5. Karimov I.A. Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Maʼnaviyat, 2008.